



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Botirova Shaxlo Isamiddinovna¹

¹ TVChDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

e-mail: botirova.2020@mail.ru

ADABIYOT O'QITISH METODIKASI VA BADIY MUTOLAA

Annotatsiya: Maqolada adabiyot o'qitishda badiiy mutolaaning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Badiiy mutolaaning , emotsiyonal, estetik, axloqiy, lisoniy, informatsion, ma'naviy, ijtimoiy ta'sir imkoniyatlari tasnif qilingan. Adabiy ta'lismi va adabiyot ta'limi tushunchalarining farqli jihatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lismi, adabiyot ta'limi, badiiy mutolaa, badiiy mutolaa imkoniyatlari, zaruriy rivojlanish, yuqori darajadagi rivojlanish.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ЧТЕНИЮ

Аннотация: В статье проанализирована роль и значение художественного чтения в обучении литературе. Классифицируются возможности художественного чтения, эмоционального, эстетического, нравственного, языкового, познавательного, духовного, социального воздействия. Обозначены отличительные черты понятий литературное воспитание и литературное воспитание.



Ключевые слова: литературное образование, литературное образование, художественное чтение, возможности художественного чтения, необходимое развитие, высокий уровень развития.

LITERATURE TEACHING METHODOLOGY AND ARTISTIC READING

Annotation: the article analyzes the role and importance of artistic reading in the teaching of literature. The possibilities of artistic reading , emotional, aesthetic, moral, linguistic, informative, spiritual, social impact are classified. Different aspects of the concepts of literature education and literature education are shown.

Keywords: literary education, literature education, artistic reading, artistic reading opportunities, necessary development, high level of development.

KIRISH (Introduction)

Adabiyot fani badiiy asarlarning uslubiy, janriy, g‘oyaviy-mavzuviy va adabiy tur borasidagi xilma-xilligidan kelib chiqib ko‘p qirrali ilmiy, ilmiy-uslubiy, ta’limiy va tarbiyaviy masalalar bo‘yicha bahs yurituvchi ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Adabiyot dars mashg‘ulotlarining maqsadi o‘quvchilarni badiiy asar mutolaasiga o‘rgatish, uni tushunish, his qilish, talqin va tahlil qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilmog‘i lozim. Badiiy so‘z san’atini anglash esa har bir insonning individual ruhiy xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda kechadigan jarayondir. Bu jarayonda yozuvchi va o‘quvchining dunyoqarashida o‘zaro singishish, muayyan darajada muvofiqlik kuzatilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu ma’noda, adabiyot fani dars mashg‘ulotlarining ishtirokchilarida erkin fikrlash ko‘nikmalarining shakllangan bo‘lishi, jamiyatda bo‘layotgan hodislarga nisbatan o‘z mustaqil pozitsiyasining shakllanganligi, badiiy asar xos bo‘lgan millatning etnografiyası, an’ana va qadriyatları, tarixi, mentaliteti bilan bog‘liq muayyan tushunchalarning mavjud bo‘lishi lozim. Adabiyot fani o‘qituvchilaridan badiiy asar tahlili jarayonida o‘quvchilarni kreativ va nostandart fikrlashga o‘rgatish, xuddi shunday fikrlaydigan o‘quvchilarning har qanday munosabatlarini (hatto noto‘g‘ri bo‘lsa ham) favqulodda qizg‘in kutib olish



va rag‘batlantirish talab etiladi. Ushbu jihatlar adabiyotning keng qamrovli hamda o‘ziga xos o‘qitish uslubiga ega fan ekanligini, uning metodikasini takomillashtirish har bir davrning eng muhim pedagogik muammolaridan ekanligini ko‘rsatadi.

Ta’lim bilan bog‘liq ravishda o‘quvchilarning aqliy darajasini, bilish qobiliyatini, o‘qishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirish va yangi pog‘onaga ko‘tarish pedagogikamizning asosiy masalalaridan biridir. Mutaxassislar ta’limning rivojlantiruvchi xususiyatini ikki darajaga ajratib tahlil qiladilar: *a) zaruriy rivojlanish; b) yuqori darajadagi rivojlanish*. Ularning biri bu o‘quvchining ayni shu dars mashg‘ulotigacha bo‘lgan tayyorgarlik darajasini anglatsa, ikkinchisi boshqacha ayni dars davomida ko‘tarilish kerak bo‘lgan darajadir. Yuqori darajadagi rivojlanish ikkinchi shaxs yoki vositaning ko‘magi vositasida amalga oshiriladigan ishni eplay olish darajasidir. Dars mashg‘uloti vositasida o‘quvchilarni ikkinchi darajaga ko‘tarish o‘qituvchining darsdan ko‘zlangan maqsadiga muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Ikkinchi darajaga ko‘tarilishda yangi bilim va unga erishish uchun o‘quvchining quvvatiga mos vazifalar bajarilishi kerak. Ushbu vazifalar o‘quvchining taraqqiyot zonasini (uning maqsad va muddaosiga mosligi) da bo‘lishi shart, aks holda kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi [1]. Yaqinlashib qolgan taraqqiyot zonasiga kirgan har narsa ta’lim jarayonida zarur rivojlanish darajasiga o‘tadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

(Literature review; Research Methodology)

Pedagogikamizda “adabiyot ta’limi” va “adabiy ta’lim” muqobil tushunchalar sifatida ishlataladi. Bizning nazarimizda, bu ikki tushuncha bir-biridan farq qiladi. “Adabiyot ta’limi” tushunchasi bevosita adabiyot predmeti va uning davriy, nazariy, amaliy bo‘limlari bilan bog‘liq tushunchadir. “Adabiy ta’lim” esa adabiyot ta’limi va unga bog‘liq bo‘lgan adabiy mashg‘ulotlar: oilada va maktabgacha ta’lim muassasalarida badiiy adabiyot vositasida olib boriluvchi tarbiya hamda boshlang‘ich ta’limdagi o‘qish darsi mashg‘ulotlarini ham o‘z ichiga oladi. Demak, “adabiy ta’lim” “adabiyot ta’limi”ga nisbatan mazmunan



kengroq tushuncha hisoblanadi. Adabiyot ta’limi fan, adabiy ta’lim esa fan tushunchasi doirasidan chetga chiqadi. Alla, ertak, afsona, rivoyat, topishmoq, masal, matal kabi xalq og‘zaki ijodi yoki bolalar yozma adabiyoti namunalarining ota-onalar tomonidan aytilishi, mutolaa qilinishi va bolaning yosh xususiyatini hisobga olgan holda o‘ziga xos muhokama, muzokara va **mubohasa** qilinish jarayonini oiladagi adabiy ta’lim deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Oiladagi adabiy ta’lim rasmiy maqomga ega bo‘lmaydi va u ota-onaning saviyasi, iqtidori va farzand tarbiyasiga nisbatan mas’uliyatiga bog‘liq. Bu o‘rinda tarbiyachini tanlash imkoniyati yo‘q. To‘g‘ri, ba’zan ota-onalar farzandlariga pedagogik ma’lumotga ega tarbiyachi olishi mumkin. Binobarin, oiladagi adabiy ta’lim yo‘llanma tarbiyachilar ixtiyoriga topshirilar ekan, endi buni oiladagi maktabgacha ta’lim deyish to‘g‘riq bo‘ladi [2]. Demak, adabiy ta’lim adabiyot ta’limiga nisbatan ertaroq boshlanadi va bola tug‘ilgan paytdan boshlab adabiy ta’limdan bahramand bo‘la boshlaydi, degan hayotiy xulosaga kelish mumkin.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida adabiy ta’lim nisbatan rasmiy tus oladi va davom etadi. Adabiy ta’lim shu davridan boshlab muayyan metodika va talablarga asoslanadi.

Barcha fanlarning asosiy maqsadi o‘quvchilarda muayyan sohaga oid bilimlarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat. Fandagi bilimlar tizimi, pirovardda, o‘quvchilarning dunyoqarashi va ongini, ma’naviy olami va insoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim. Bu fan oldidagi o‘zgarmas talablardan biridir. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, boshqa birorta fan bu borada adabiyotning oldiga tusha olmaydi. Chunki adabiyot mazmun-mohiyati va maqsad-muddaosi bilan insonning yuqorida qayd etilgan sifatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, adabiyot o‘qitish metodikasining jamiyat oldidagi missiyasi o‘zining rad qilib bo‘lmaydigan asoslariga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR (Analysis and results)

Adabiyot o‘qitish metodikasi ilmiy-pedagogik muammo sifatida jamiyat taraqqiyotiga, uning o‘z-o‘zini anglashiga, joriy etilgan qonun va tamoyillar, strategik maqsad va vazifalarni insonparvarlashtirishga xizmat qiladigan har



qanday masalani o‘zlashtirish va uning ustida tadqiqot olib borishi mumkin. Ushbu tadqiqotlarda san’atning qonuniyat va tamoyillariga tayanishi lozim.

Adabiyot o‘qitish metodikasi badiiy adabiyotni o‘rganish yo‘llarini o‘rgatuvchi fandir. Darhaqiqat, badiiy adabiyotni o‘rganishda ularning barchasiga bir xil yondashib bo‘lmaydi. Bu badiiy asarning adabiy tur va janriy, davriy, g‘oyaviy, shakliy va mazmun bilan bog‘liq turlariga qarab alohida yondashishni talab qiladi. Qaysidir asarni o‘rganishda lug‘atlardan foydalanish, yana boshqasida sharh va izohlarga keng o‘rin ajratish, boshqa birida esa davr ijtimoiy muammolari bilan solishtirish yoki nazariy ma’lumotlardan kengroq foydalanish samarali hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan adabiyot fani o‘qituvchisi dars mashg‘ulotida badiiy asarning o‘ziga xosligidan kelib chiqib nazariy, qiyosiy, biografik, estetik, didaktik tahlil metodlaridan foydalanadi [3]. Bu, albatta, adabiyot o‘qitish metodikasining fan sifatidagi ahamiyati juda muhimligini, bo‘lajak adabiyot fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy fanlardan ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyot o‘qitish metodikasi fanining ilmiy-nazariy muammolari quyidagilardan iborat:

- adabiyot tarixini davrlashtirish;
- adabiyotning rivojlanish an’analari va tamoyillarini belgilash;
- adabiyot nazariyasi va adabiy jarayon;
- badiiy asar lingvopoetikasi;
- shoir va yozuvchilarning ijodiy portretini yaratish;
- badiiy asar tahlili;
- o‘quvchilarda badiiy mutolaa madaniyatini shakllantirish;
- o‘quvchilarda badiiy asarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni qaror toptirish;
- badiiy asar tahlili metodlari;

Adabiyot o‘qitish metodikasining pedagogik muammolari sifatida esa quyidagilarni keltirish mumkin:

- adabiyot darslarini tashkil qilish;
- adabiyot fanidan sinfdan tashqari va mustaqil ishlarni tashkil qilish;



- adabiyot fanini o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy metodlari;
- dars mashg‘ulotiga innovatsion yondashuvlar;
- dars mashg‘uloti samaradorligini oshirishning usul va yo‘llari, metod va texnologiyalari;
- o‘qitishning asosiy va yordamchi vositalari, didaktik ta’mintoni takomillashtirish;
- bo‘lajak adabiyot fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Tadqiqotchi M.Musurmonqulova dars mashg‘uloti va uning tarkibiy qismlari haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Rasmiy ta’limning bilamchi asosi dars hisoblanadi. Dars, o‘z navbatida, bir butunlik bo‘lib, quyidagi qismlardan tashkil topgan: ta’lim-tarbiya beruvchi; ta’lim-tarbiya oluvchi; dastur va darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar, o‘qitishning texnik vositalari” [4]. Shu nuqtai nazardan yondashilganda, adabiyot o‘qitish metodikasining ilmiy va pedagogik muammolari, ularning tadqiqi va amaliy ijrosining jamuljami adabiyot darslarining samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim. Dars mashg‘uloti ijodiy jarayondir. Unga muayyan qoliplar asosida yondashish to‘g‘ri emas. Mashg‘ulotda o‘qituvchiga darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan har qanday usul, vosita va texnologiyalardan foydalanishga ruxsat beriladi [5]. Albatta, bu milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloq-odob me’yorlaridan chiqmagan holda amalgalashirishi maqsadga muvofiq.

Adabiyot fani o‘qituvchisining maqsadi o‘quvchilarga badiiy adabiyotning mu’jizakor qudratini ko‘rsata bilish va uning estetik ta’sir kuchini yuqtira bilishdan iborat ekan, adabiyot o‘qitish metodikasi fani bo‘lajak o‘qituvchilarda xuddi shu sifatlarni o‘zida jamlagan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilmog‘i lozim. O‘quvchilarda “estetik to‘yinsh” amalgalashirishi oshmas ekan, adabiyot darsini samarali deb bo‘lmaydi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi badiiy adabiyotning inson kamolotidagi roli borasida mustaqil ko‘nikmalarga, aniq tasavvur va o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lishi kerak [6]. Modomiki, fikr badiiy adabiyotning inson



kamolotidagi roli haqida borar ekan, badiiy mutolaaning insonga ta'sir qilish imkoniyatlarini tasnif qilish lozim bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (Conclusion/Recommendations)

Badiiy mutolaaning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Badiiy mutolaaning emotsiyonal ta'siri. Mutolaa jarayonidagi turli emotsiyonal holatlar – asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan ta'sirlanish: kulgi, yig'i, nafrat, moyillik, simpatiya va antipatiya natijasida yuz beradigan turli ruhiy holatlar insonning qalbida ezgulikka (yaxshilikka) moyillik va yovuzlikka (yomonlikka) nisbatan nafrat hissini uyg'otadi. Sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov "Badiiy asardan ta'sirlanib yig'lagan insondan yomonlik chiqmaydi", deganida haq edi. Abdulhamid Cho'lon ta'biri bilan aytganda, bunday emotsiyonal holatlar go'yo toza buloq suvi kabi bo'lib, o'quvchi qalb oynasiga qo'ngan chang va g'uborlarni tozalaydi.

2. Badiiy mutolaaning intellektual ta'siri. Badiiy asar o'qish jarayonida inson shu asar mavzusi bilan bog'liq muayyan bilimlarga ega bo'ladi. Badiiy asarda har qanday mavzu qalamga olinishi mumkin va natijada o'quvchining asar mavzusiga mos ravishda falsafiy, tarixiy, adabiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarga oid bilimi oshib boraveradi. Masalan, Oybekning "Navoiy" romanini o'qir ekan, kitobxonda XV asrdagi tarixiy sharoit, siyosiy vaziyat, o'sha davrdagi insonlarning yashash tarzi va ijtimoiy munosabatlari, ulug' bobomizning hayoti va ijodi bilan bog'liq bilimlari kengayadi. Haqiqiy badiiy asarlar iste'dod mahsuli bo'lib, unda u yoki bu darajada hayotiy xulosalar va umumlashmalar aks etgan bo'ladiki, bu xulosalar o'quvchining intellektining oshishiga, aqliy qobiliyatining kuchayishiga xizmat qiladi.

3. Badiiy mutolaaning lisoniy ta'siri. Mutolaa, avvalo, kitobxonda lisoniy fazilatlarning sifatini oshiradi: so'z boyligi (leksikon) ni kengaytiradi, nutqiy qobiliyatini oshiradi. Badiiy mutolaa bilan muntazam shug'ullanish insonda o'zining fikrini ravon, tushunarli va oson ifodalay olish ko'nikmasini shakllantiradi. Tarixiy asarlarni o'qish jarayonida esa o'quvchi istorizmlar va



arxaizmlar bilan bog‘liq tarixiy leksik birliklar bilan tanishadi. Umuman, yaxshi kitobxon tildagi ifodaviylik, nafosat va go‘zallikni his qila oladigan, undan amalda foydalana oladigan bo‘ladi.

4. Badiiy mutolaaning ma’naviy ta’siri. Asar zamiriga singdirilgan g‘oya va fikrlar insonda iymon, vijdon, insof, diyonat, sadoqat, rostgo‘ylik, samimiyat kabi qator fazilatlarni shakllantiradi. Yaxshi badiiy asarlarning barchasida u yoki bu ma’naviy qadriyatlar ulug‘lanadi, tarannum etiladi. Chunki badiiy asar o‘z tabiatini va mohiyatiga ko‘ra ma’naviyatni targ‘ib qilish vositasidir.

5. Badiiy mutolaaning estetik ta’siri. Badiiy asar hayotdan ko‘ra go‘zalroq va maftunkorroq bo‘lganligi uchun ham undagi voqealar biz uchun qiziqarlidir. Badiiy asarni o‘qishimiz ham aslida shundan. Badiiy asardagi hayot parchasi yozuvchining shunga o‘xshash ko‘plab voqealarni kuzatib, ularni aql elagidan o‘tkazib, saralab olishi va ularni o‘quvchiga estetik ta’sir qiladigan shakl va mazmunda tasvirlashi natijasida hayotning badiiylashtirilgan tipik epizodi bunyodga keladi. Hayotning badiiy epizodida go‘zallik, nafosat kategoryalari targ‘ib qilinadi. Hayot bilan adabiyotning mohiyati bir, ammo unga munosabat masalasida farq mavjud. Buni obrazli tarzda hayotga qiyoslangan oddiy kiyimdagagi qiz bilan adabiyotga qiyoslangan kelinlik libosidagi qizga o‘xshatish mumkin. Bunda kelinlik libosidagi qizning go‘zalligi insonlar diqqat-etiborini ko‘proq jalb qilganidek, adabiyot ham ana shu go‘zalligi bilan kitobxonni o‘ziga maftun etadi. Bu go‘zallik tarannumi esa o‘quvchidagi estetik didning o‘sishiga, go‘zallikni his qila bilish va undan rohatlanish fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

6. Badiiy mutolaaning etik (axloqiy) ta’siri. Badiiy asarlarda muayyan xalqning uzoq yillardan buyon yashab kelayotgan axloqiy qadriyatlari u yoki bu darajada o‘z aksini topadi. Adabiyot mohiyatan axloqiy hodisadir [7]. Asarning ijobjiy qahramonlarida mujassamlashtirilgan axloqiy sifatlar o‘quvchiga ko‘chadi. Har qanday o‘quvchi asar qahramonidagi bu kabi fazilatlarni ong ostida yoqlaydi, ma’qullaydi va bu esa ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda kitobxonad shu kabi sifatlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.



7. Badiiy mutolaaning informatsion ta'siri. Har qanday badiiy asar hayotning muayyan parchasi sifatida o'zida ko'plab xabar va axborotlarni tashiydi. Asarda bu kabi axborotlarning mujassamlashuvi kitobxon dunyoqarashning kengayishiga, axborot bazasining boyishiga xizmat qiladi.

8. Badiiy mutolaaning ijtimoiy ta'siri. Badiiy asarni ko'p mutolaa qilgan insonlarda boshqa insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishda muammolar kuzatilmaydi. Bunday insonlar xushmuomala, suhbatdoshni tushunadigan va uni o'ziga qiziqtiradigan, o'zgalar bilan tez til topisha oladigan bo'ladi [8]. Demak, badiiy mutolaa natijasida shakllangan yaxshi muomala kitobxonda madaniy sifatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

“O'quvchilardagi barqaror g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy va estetik ishonch-e'tiqodlarning shakllanishi, ularning eng muhim hayotiy tushunchalar mag'zini chaqa olishi ma'lum ma'nolarda adabiyot o'qituvchisining mahoratiga bog'liqdir” [9]. Darhaqiqat, o'quvchilarda hayotiy voqealarga nisbatan o'z mustaqil qarashlarining shakllanishida, insoniy fazilatlarning rivojlanishida adabiyot fanining, yana ham to'g'rirog'i, adabiyot fani o'qituvchisining roli katta bo'ladi. Bu endi adabiyot fani va uning o'ziga xos estetik ta'sir imkoniyatlari, o'qituvchining o'sha imkoniyatlarni o'quvchilarga yuqtira olish iqtidori bilan sodir bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (References):

1. Лесохина Л.Н. Нравственное развитие учащихся в процессе изучения литературы. - Сб. Искусство анализа художественного произведения. М.: Просвещение, 1971, с. 124.
2. Botirova Sh.I. (2020). Problematic Aspects Related To the Use of Educational Technologies And Interactive Methods In The Classroom. *International Journal of Multidisciplinary Research*, 6(8), 539-541.
3. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., А.Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиши методикаси. Тошкент “Ўқитувчи”- 1992. 10-бет.



4. Мусурмонқулова М.М. Креатив ёндашув асосида ўқитишнинг дидактик таъминотини яратиш механизмлари // Замонавий таълим, 2018 йил №4, -Б. 56-61
5. Khodjamkulov U., Botirova Sh., Shofkorov A., Abdirimova I. Bases of organizing cooperation between educational institutions Through clusters (on the example of the education system of Uzbekistan // Journal of Critical Reviews. vol. 7, Issue 12, 2020. P. 243-247.
<http://www.jcreview.com/index.php?fulltxt=115476&fulltxtj=197&fulltxtp=197-1592273486.pdf>
6. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дарслик, Т.: Янги аср авлоди, 2010 й., -Б. 6-7.
7. Mardonov Sh., Khodjamkulov U., Botirova Sh., Shermatova U. The need to educate young people with the spirit of patriotism in the Context of globalization // Journal of Critical Reviews. Vol. 7, Issue 12, 2020. P. 166-169.
<http://www.jcreview.com/index.php?fulltxt=115456&fulltxtj=197&fulltxtp=197-1592271867.pdf>
8. Botirova Sh.I. (2020). For Students of Philology Teaching Literary Conditions of Learning Basic Analysis. *Science and Education*, 1(5), 110-113.
9. Лесохина Л.Н. Нравственное развитие учащихся в процессе изучения литературы. -Сб. Искусство анализа художественного произведения. М.: Просвещение, 1971, с. 124